

JINOYAT PROTSESSIDA MUTAXASSIS ISHTIROKINING AHAMIYATI VA MUTAXASSISNING PROTSESSUAL MAQOMINI TAKOMILLASHTIRISHGA OID AYRIM MULOHAZALAR

Usmonaliyev Najmiddin Qo'shboq o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

"Tergov faoliyati" kafedrası o'qituvchisi

Zokirov Javlon Rustam o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 3-bosqich 324-guruh kursanti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15624922>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi jinoyat protsesual qonunchiligida mutaxassis instituti, uning mazmun va mohiyati, mutaxassis va ekspertlarning huquq va majburiyatlari, ular ishtirokining jinoiy-protsessual ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar

Mutaxassis, ekspert, huquq va majburiyat, ekspertiza, xulosa, tergov va surishtiruv, maxsus bilim, dalillar, rasmiylashtirish.

Аннотация

В статье анализируется институт специалиста в уголовно-процессуальном законодательстве Республики Узбекистан, его содержание и сущность, права и обязанности специалистов и экспертов, уголовно-процессуальное значение их участия.

Ключевые слова

Специалист, эксперт, права и обязанности, экспертиза, заключение, расследование и дознание, специальные познания, доказательства, оформление.

Jinoyatlarni tergov qilish ko'p qirrali hodisa bo'lib, tergovni olib boruvchi shaxsdan ilmiy bilimlarning turli sohalari bo'yicha ko'p qirrali bilimlarni talab qiladi. Biroq, tergovchilardan bunday bilimga ega bo'lishni talab qilish mumkin emas. Uzoq vaqt davomida ushbu muammoni hal qilish uchun ekspertlar va mutaxassislarning yordami ishlatilgan. Qonunchilikda mutaxassisning huquqiy maqomi uning xulosasi belgilangan bo'lsada, ammo bu jinoyatlarni tergov qilishda ekspert va mutaxassisning roli va ushbu sub'ektlarning huquqiy holati o'rtasidagi bog'liqlik haqida savollar tug'diradi¹. Dastavval O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida ko'rsatilgan "ekspert" va "mutaxassis" tushunchalaridan boshlash zarur. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual qonunchiligida "ekspert" yoki "mutaxassis" tushunchalari aniq ask etirilmagan, faqat ekspert yoki mutaxassis sifatida jalb etilishi mumkin bo'lgan shaxslarni belgilash bilan cheklangan. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 67-moddasiga muvofiq, "Xulosa berish uchun zarur fan, texnika, san'at yoki hunar sohasida maxsus bilimlarga ega bo'lgan har qanday jismoniy shaxs ekspert sifatida chaqirilishi mumkin"².

¹ Б.Б.Муродов. Жиноят-протсессуал қонун нормаларини эркинлаштириш йўллари // Олий юридик ўқув юртларида инсон ҳуқуқлари муҳофазасини таъминловчи фанларнинг ўқитишнинг замонавий муаммолари. Тошкент. Ўзбекистон Миллий университети ҳуқуқшунослик факултети 2009. Б. 66-69.

² Б.Б.Муродов. Жиноят-протсессуал муносабатларда ҳимоячининг иштироки // "Адвокатлик фаолияти: назария ва амалиёт масалалари" мавзусидаги илмий-амалий конференция материаллари. ЎзР Президенти ҳузуридаги Амалдаги қонун ҳужжатлари мониторинги институти. – Тошкент, 2010. Б. 171-175.

O'zbekiston Respublikasining "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi Qonunining 10-moddasida ko'ra "Sud eksperti sifatida davlat sud eksperti, boshqa tashkilot xodimi yoki boshqa jismoniy shaxs ishtirok etishi mumkin. Boshqa tashkilot xodimi sud ekspertizasini uni tayinlagan organ (shaxs) tomonidan mazkur tashkilotga berilgan topshiriqni bajarish tartibida o'tkazadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 69-moddasida "Tergov va sud muhokamasini o'tkazishda dalillarni topish va mustahkamlashda surishtiruvchiga, tergovchiga, prokurorga va sudga yordam berish uchun mutaxassis chaqiriladi. Mutaxassis sifatida shifokor, pedagog hamda zarur bilim va malakaga ega bo'lgan boshqa shaxslar chaqirilishi mumkin". Shubhasiz, bu tushunchalarning umumiyliigi bu shaxslarning "maxsus bilimlar"ga ega ekanligidan dalolat beradi³.

Qonunchilik nuqtai nazaridan jinoyat protsessida ekspert va mutaxassisga tegishli bo'lgan "maxsus bilimlar" tushunchasi fan, texnika, san'at yoki hunarmandchilik sohasidagi tor profilli kasbiy bilim va ko'nikmalar majmui sifatida belgilanishi mumkin hamda jinoyat ishini tergov qilish va hal qilish doirasida foydalaniladi. O'zbekiston Respublikasi "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi Qonunining yangi tahriri loyihasida "maxsus bilim" tushunchasi o'z ichiga olingan bo'lib, "maxsus bilimlar – maxsus tayyorgarlikdan o'tish va (yoki) kasbiy malaka yohud tajriba orqali o'zlashtiriladigan va sud-ekspertiza tadqiqotlari uslubiyotlarida o'z aksini topgan, fan, texnika, san'at yoki hunar sohasidagi nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar majmui"ta'rifi berilgan. Ekspert va mutaxassis tomonidan maxsus bilimlarni qo'llash shakllari sezilarli farqlarga ega. Mutaxassis ulardan foydalanib, tergovchiga tergov va protsessual harakatlarni amalga oshirishda yordam beradi va bunday o'zaro hamkorlik protsessual shaklda ham, masalan, mutaxassis tergov guruhiga kiritilganda, va noprotsessual shaklda, kiritilmaganda ham amalga oshiriladi, u maslahat ishlarini olib boradi va bunda tergov harakatining bayonnomasida aks ettirilmaydi⁴. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 70-moddasiga ko'ra mutaxassis quyidagi huquqlarga ega "Mutaxassis: o'zining qanday maqsadda chaqirilganligini bilish; basharti tegishli bilimlarga ega bo'lmasa, ish yuritishda ishtirok etishdan bosh tortish; o'zi ishtirok etayotgan protsessual harakatlarga oid ish materiallari bilan tanishish; o'zi ishtirok etayotgan protsessual harakatlarga aloqador arz va mulohazalar bildirish; tergov harakatlari va sud muhokamasida ishtirok etayotgan shaxslarga surishtiruvchining, tergovchining, prokuror va sudning ruxsati bilan savollar berish; surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning harakatlari ustidan shikoyatlar keltirish huquqiga egadir⁵.

Ekspert o'z faoliyatini o'zi uchun mavjud bo'lgan yagona shaklda – ekspertiza tadqiqotini o'tkazish orqali amalga oshiradi. Ekspertiza tushunchasining lug'aviy ma'nosi yuridik ensiklopediyada "ekspertiza (lotincha "response" – "javob"; "expertus" – "tajribali, tajribadan biluvchi") –mutaxassis yoki mutaxassislar guruhi tomonidan uyoki bu sohada malakali yechim talab qilinadigan masalalarni o'rganish"sifatida ta'riflanadi. O'zbek tilining izohli lug'atida

³ Ш.Ш.Суюнов. Гиёхвандлик воситалари ёки психотроп моддалар билан қонунга хилоф равишда муомала қилишдан иборат жиноятларни квалификация қилишнинг муҳим жиҳатлари. "Талқин ва тадқиқотлар" Республика илмий-услубий журнали 10сон. 01.10.2022 йил Б. 105-109.

⁴ Ш.Ш.Суюнов. Компютер техника воситалари орқали содир этилган фирибгарлик жинояти турлари. "Замонавий дунёда педагогика ва психология" номли Республика илмий-амалий конференцияси. 9.06.2023 йил

⁵ Ш.Ш.Суюнов. Гиёхвандлик воситаларини, уларнинг аналогларини ёки психотроп моддаларини сотиш мақсадисиз ноқонуний ишлаб чиқариш, олиш, сақлаш, жинояти тушунчаси // Жамият ва инновация. – 2025. – В. 6. – Но 1/С. – Б. 267-277.

“ekspertiza (fransuzcha –tajribali, sinalgan) qiyin va chigal masalani yechish va hal qilish uchun mutaxassislar ishtirokida uyushtirilgan tekshirish, shunday tekshirishni o‘tkazuvchi mutaxassislar hay’ati” sifatida bayon qilingan. Ta’kidlash lozimki, jinoyat ishlari bo’yicha ekspertiza alohida maqomga ega bo’lgan ekspertiza turi bo’lib, u maxsus bilimlarga asoslangan tadqiqotda namoyon bo’lishi bilan ham e’tiborlidir⁶. Jinoyat ishlari bo’yicha ekspertiza boshqa turdagi ekspertizalardan o’zining tayinlanish va o’tkazish tartibi, Jinoyat-protsessual kodeksida qat’iy va aniq belgilanganligi bilan farqlanadi. O’zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 68-moddasi ko’ra « Ekspert: ekspertiza predmetiga oid ish materiallari bilan tanishish, ulardan zarur ma’lumotlarni yozib olish yoki ko’chirma nusxalar olish; ekspertizani o’tkazish uchun zarur bo’lgan qo’shimcha materiallar va tekshirish ob’ektlari taqdim etilishi haqida iltimosnomalar berish; tergov harakatlari o’tkazilayotganda surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning ruxsati bilan hozir bo’lish hamda shu tergov harakatlarida ishtirok etuvchi shaxslarga ekspertiza predmetiga oid savollar berish; sud muhokamasida ekspertiza predmetiga oid dalillarni tekshirishda ishtirok etish va so’roq qilinayotgan shaxslarga sudning ruxsati bilan savollar berish; ashyoviy dalillar va hujjatlarni ko’zdan kechirish; o’z xulosasida nafaqat o’zining oldiga qo’yilgan savollar bo’yicha, balki ekspertiza predmetiga oid va ish uchun ahamiyatga molik boshqa masalalar bo’yicha ham fikrlarini bayon etish; uning xulosasi yoki ko’rsatuvlari protsess ishtirokchilari tomonidan noto’g’ri talqin qilinganligi xususida tergov harakati yoki sud majlisi bayonnomasiga kiritilishi lozim bo’lgan bayonotlar berish; agar u ish yuritilayotgan tilni bilmasa yoki yetarlicha bilmasa, o’z ona tilida xulosa taqdim etish va ko’rsatuvlar berish hamda bunday holda tarjimon xizmatidan foydalanish; agar ishni yuritayotgan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ekspertning huquq va erkinliklarini buzayotgan bo’lsa, bu qarorlar, harakatlar (harakatsizlik) ustidan shikoyatlar qilish huquqiga egadir”⁷.

Jinoyat protsesida mutaxassis ishtiroki katta ahamiyatga ega, chunki u jinoyatni tergov qilish va sud jarayonini to’g’ri va adolatli o’tkazish uchun zarur bo’lgan ma’lumotlar va tahlillarni taqdim etadi. Mutaxassislar o’z sohasidagi bilimlari va tajribasi bilan muhim rollarni bajaradilar. Ularning ishtiroki quyidagi jihatlarida ahamiyatli:

Texnik va ilmiy yordami: Jinoyat protsesida mutaxassislar jinoyatni tergov qilishda kerakli texnik bilimlarni taqdim etadilar. Misol uchun, kriminalistika, balistika, psixologiya, tibbiyot, va boshqa sohalarda mutaxassislarning fikrlari jinoyatni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular jinoyatni sodir etish usuli, dastlabki izlar va qurbonlarning holatini aniqlashda yordam berishi mumkin.

Tergovda aniqlik: Mutaxassislarning ishtiroki tergovchilar va sudyalarga jinoyatga oid murakkab holatlarni tushunishda yordam beradi. Misol uchun, agar jinoyatni sodir etish

⁶ Хушвактова Н.А. Коррупцияга оид жиноятларни фош қилиш ва тергов қилишда жамоатчилик ёрдамидан фойдаланиш // «Давлат бошқаруви соҳасида коррупциявий хавф-хатарларни бартараф этиш механизмларини такомиллаштириш масалалари»: республика илмий-амалий конференцияси тўплами – Тошкент давлат юридик университетининг ихтисослаштирилган филиали, Т: 2022. Б.78-83.

⁷ Ш.С.Агоев., Асатуллаев Д. Ахборот технологиялари соҳасидаги ўғирлик жиноятларни тергов қилишнинг ўзига хос хусусиятлари //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. 7. – С. 31-35.

jarayonida ba'zi ilmiy usullar yoki texnik asboblari ishlatilgan bo'lsa, mutaxassislar ularni tushuntirib bera olishadi⁸.

Adolatni ta'minlash: Jinoyat protsesida mutaxassislar sudda adolatni ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Ularning ekspertiza xulosalari sudyaga qaror qabul qilishda yordam beradi. Ularning xulosalari noaniqliklar va haqiqatni aniqlashda muhim o'rin tutadi⁹.

Muammo va izlanishlarga yechim topish: Jinoyat protsesida mutaxassislar murakkab masalalarni hal qilishda, masalan, jismoniy yoki psixologik holatni tushuntirishda yordam berishadi. Ular ekspertiza orqali to'g'ri yechimlar taklif qilishlari mumkin.

Jinoyatchining psixologik holati: Psixologlar va psixiatrlar mutaxassis sifatida jinoyatchining ruhiy holatini baholashda, uning psixologik xususiyatlari va jinoyatga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlashda yordam beradi. Bu esa jinoyatni sodir etishda uning rolini tushunishga yordam beradi. Shu sababli, mutaxassislarning ishtiroki jinoyat protsesining samarali va adolatli o'tishini ta'minlash uchun juda muhimdir.

Jinoyat protsesida mutaxassis ishtirokining takomillashtirilishi uning samaradorligini oshirish, adolatni ta'minlash va jinoyatni aniqlashda yanada aniqlik kiritish uchun muhimdir. Mutaxassislarning roli ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, ular jarayonning har bir bosqichida muhim ahamiyatga ega. Mutaxassis ishtirokini takomillashtirish uchun quyidagi yo'nalishlarda ish olib borish mumkin:

- tajribali mutaxassislar: Jinoyat protsesida ishtirok etadigan mutaxassislar har doim o'z sohasida yetarli bilimga va tajribaga ega bo'lishi kerak. Shu sababli, mutaxassislarni tanlashda ularning professional darajasi, malakasi va tegishli sohada tajribasi hisobga olinishi zarur.

- malaka oshirish kurslari: mutaxassislar doimiy ravishda o'z bilimlarini yangilab borishlari kerak. Ular uchun maxsus malaka oshirish kurslari va seminarlar tashkil etilishi, yangi texnologiyalar, metodlar va usullarni o'zlashtirishda yordam beradi.

Jinoyatni tergov qilishda yangi ilmiy va texnologik yutuqlarni joriy etish zarur. Masalan, biologik va kimyoviy izlarni aniqlash, sun'iy intellekt va ma'lumotlarni tahlil qilish dasturlari yordamida jinoyatlarni tez va aniq aniqlash mumkin.

Kriminalistika va ekspertiza usullari: kriminalistika, balistika, va boshqa ekspertizalarda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, mutaxassislarning aniqlik va sifatli ish faoliyatini ta'minlaydi¹⁰.

Tergovchilar mutaxassislar bilan yaqin hamkorlikda ishlashlari kerak. Ularni tegishli sohalar bo'yicha malakali mutaxassislar bilan muntazam ravishda ishlashga o'rgatish, ular o'rtasidagi kommunikatsiyani kuchaytiradi.

⁸ A.T.Аширбоев. Айбланувчининг иштирокини таъминлаш имкони бўлмаган тақдирда дастлабки терговни тўхтатиш: Назария ва амалиёт. Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Қорақалпоғистон бўлимининг Ахборотномаси № 1 (2024).– 2024. 95-98 б.

⁹ Н.Қ.Усманиев. “Оқилона муддат” таъминлини жорий этиш назарий ва амалий жиҳатлари //Наука и инновации в системе образования. – 2025. – Т. 4. – №. 3. – С. 44-50.

¹⁰ А.Т.Аширбоев. Суриштирув ва дастлабки терговни тўхтатиш институти: халқаро тажриба ва ўзбекистон қонунчилигини такомиллаштириш истикболлари //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. 14. – С. 37-42.

Tezkor va samarali aloqalar: Jinoyat protsesida mutaxassislar va tergovchilar o'rtasida tezkor va samarali aloqalarni o'rnatish, tergov jarayonining samaradorligini oshiradi. Bu mutaxassislarning xulosalari va tavsiyalariga tezda e'tibor qaratishni ta'minlaydi¹¹.

Mutaxassislar o'zlarining xulosalarini to'g'ri, aniq va adolatli asoslashlari kerak. Ularning ekspertiza xulosalari jinoyatni tergov qilishda noaniqlik yoki manipulyatsiya qilishning oldini olishga yordam beradi. Mutaxassislar o'z xulosalarini faqat ilmiy asosda berishlari kerak. Ularning mustaqil ishlashlari, har qanday tashqi ta'sirdan holi bo'lishi, ekspertizaning ishonchliligini ta'minlaydi.

Mutaxassislar sud jarayonida o'z ekspertiza xulosalarini tushunarli va aniq tarzda taqdim etishlari zarur. Bu, sudyalari va jamoatchilikka mutaxassislarning fikrlarini tushunishga yordam beradi. Mutaxassislarning ishtiroki sudda to'g'ri va adolatli qarorlar chiqarish uchun zarur. Buning uchun ekspertiza jarayonlarini tartibga soluvchi standartlar va me'yorlar ishlab chiqilishi muhim¹².

Jinoyat protsesidagi mutaxassislarning ishtirokini jamoatchilikka ochiq va shaffof qilish zarur. Bu ularning ishini yanada ishonchli va adolatli qiladi.

Ishonchni mustahkamlash: Mutaxassislarning ishlari to'g'ri, aniq va adolatli bo'lishi, ularning ishiga bo'lgan ishonchni oshiradi. Ularning xulosalari ishonchli va asosli bo'lishi kerak.

Spetsializatsiya: Har bir jinoyat turi o'ziga xos bo'lishi mumkin. Shu sababli, mutaxassislarni ma'lum bir jinoyat turiga ixtisoslashgan sohalarda tayyorlash va ularni shu sohada ishlashga yo'naltirish zarur. Masalan, psixologik tahlil mutaxassislari, balistika mutaxassislari va boshqalar.

Jinoyat protsesida mutaxassislarning ishtirokini takomillashtirish, faqatgina tergov va sud jarayonlarini samarali o'tkazish uchun emas, balki huquqni muhofaza qilish tizimining ishonchli va adolatli ishlashini ta'minlash uchun ham muhimdir.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 25.01.2020 йилдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси. // [Электрон манба].
3. Ўзбекистон юридик энциклопедияси. –Т., 2009. – Б. 199.
4. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Т.4. –Т., 2002. – Б. 47.
5. Б.Б.Муродов. Жиноят-протсессуал қонун нормаларини эркинлаштириш йўллари // Олий юридик ўқув юртларида инсон ҳуқуқлари муҳофазасини таъминловчи фанларнинг ўқитишнинг замонавий муаммолари. Тошкент. Ўзбекистон Миллий университети ҳуқуқшунослик факултети 2009. Б. 66-69.
6. Б.Б.Муродов. Жиноят-протсессуал муносабатларда ҳимоячининг иштироки // “Адвокатлик фаолияти: назария ва амалиёт масалалари” мавзусидаги илмий-амалий

¹¹ Ш.Ш.Суёнов. Ҳодиса содир бўлган жойни кўздан кечириш тергов ҳаракатининг жиноят содир этган шахсларни аниқлаш ҳамда уларнинг айбини исботлашдаги аҳамияти. “Замонавий дунёда педагогика ва психология” номли Республика илмий-амалий конференцияси.

¹² Н.Қ.Усманалиев. Жиноят ишини юритишни тўхтатиш ва тиклаш муддатлари билан боғлиқ айрим мулоҳазалар //Теоретические аспекты становления педагогических наук. – 2025. – Т. 4. – №. 6. – С. 40-47.

- конференция материаллари. ЎЗР Президенти ҳузуридаги Амалдаги қонун ҳужжатлари мониторинги институти. – Тошкент, 2010. Б. 171-175.
7. Б.Б.Муродов. Хусусий айблов институтини қўллаш самарадорлигини ошириш йўллари // Хусусий айблов ва ярашув институтларини такомиллаштириш чоралари: Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. Т.:Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2015й.Б. 34-40.
 8. Б.Б.Муродов. “Жиноятларни тергов қилиш методикаси” фанидан ўқув дастури. Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2012. Б.24
 9. Ш.Ш.Суюнов. Гиёҳвандлик воситалари ёки психотроп моддалар билан қонунга ҳилоф равишда муомала қилишдан иборат жиноятларни квалификатсия қилишнинг муҳим жиҳатлари. “Талқин ва тадқиқотлар” Республика илмий-услубий журнали 10сони. 01.10.2022 йил Б. 105-109.
 10. Ш.Ш.Суюнов. Компютер техника воситалари орқали содир этилган фирибгарлик жинояти турлари. “Замонавий дунёда педагогика ва психология” номли Республика илмий-амалий конференцияси. 9.06.2023 йил
 11. Ш.Ш.Суюнов. Ҳодиса содир бўлган жойни кўздан кечириш тергов ҳаракатининг жиноят содир этган шахсларни аниқлаш ҳамда уларнинг айбини исботлашдаги аҳамияти. “Замонавий дунёда педагогика ва психология” номли Республика илмий-амалий конференцияси.
 12. Ш.Ш.Суюнов. Гиёҳвандлик воситаларини, уларнинг аналогларини ёки психотроп моддаларини сотиш мақсадисиз ноқонуний ишлаб чиқариш, олиш, сақлаш, жинояти тушунчаси // Жамият ва инновация. – 2025. – В. 6. – Но 1/С. – Б. 267-277.
 13. А.Т.Аширбоев. Айбланувчининг қаерда эканлиги номаълум бўлган ҳолларда жиноят ишини тўхтатишнинг назарий ва амалий жиҳатлари. Жамият ва инновациялар № 1 (2024).– 2024. – 314-320 б.
 14. А.Т.Аширбоев. Жиноят ишини тўхтатиш тушунчаси ва аҳамияти. Эксперткриминалистик фаолият: истиқболлар ва инновациялар мавзусидаги халқаро конференция материаллари тўплами. Т., Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги Академияси, 2023. – Б. 381-388.
 15. А.Т.Аширбоев. Айбланувчининг иштирокини таъминлаш имкони бўлмаган тақдирда дастлабки терговни тўхтатиш: Назария ва амалиёт. Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Қорақалпоғистон бўлимининг Ахборотномаси № 1 (2024).– 2024. 95-98 б.
 16. А.Т.Аширбоев. Суриштирув ва дастлабки терговни тўхтатиш институти: халқаро тажриба ва ўзбекистон қонунчилигини такомиллаштириш истиқболлари //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. 14. – С. 37-42.
 17. Н.Қ.Усманиев. “Оқилона муддат” тамойиилини жорий этиш назарий ва амалий жиҳатлари //Наука и инновации в системе образования. – 2025. – Т. 4. – №. 3. – С. 44-50.
 18. Н.Қ.Усманиев. Жиноят ишини юритишни тўхтатиш ва тиклаш муддатлари билан боғлиқ айрим мулоҳазалар //Теоретические аспекты становления педагогических наук. – 2025. – Т. 4. – №. 6. – С. 40-47.

19. Н.Қ.Усманалиев. Протсессуал муддатларнинг ҳисоблашда қўлланилувчи меъзонларнинг айрим жиҳатлари //проблемс анд солутсионс оф ссиентифис анд инновативе ресеарч. – 2024. – Т. 1. – №. 3. – С. 25-30.
20. Н.Қ.Усманалиев. Байназов Ж. Ўғирлик жинояти бўйича ҳодиса содир бўлган жойни кўздан кечириш тергов ҳаракатининг янги усуллари //Наука и инновации в системе образования. – 2024. – Т. 3. – №. 8. – С. 69-74.
21. Ш.С.Агоев., Шакирова С. Қийнаш жиноятини тергов қилиш: назария ва амалиёт //Развитие и инновации в науке. –2024. – Т. 3. – №. 6. – С. 75-81.
22. Ш.С.Агоев., Абдухамидов А. Гувоҳлантириш тергов ҳаракатини ўтказишнинг ахамияти //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. 7. – С. 49-51.
23. Ш.С.Агоев., Асатуллаев Д. Ахборот технологиялари соҳасидаги ўғирлик жиноятларни тергов қилишнинг ўзига хос хусусиятлари //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. 7. – С. 31-35.
24. Ш.С.Агоев., Ташев У. Экспертиза фаолиятининг арманистон республикаси жиноят-протсессуал қонунчилигидаги ҳуқуқий асослари //Развитие и инновации в науке. – 2024. – Т. 3. – №. 6. – С. 48-56.
25. Хушвактова Н.А. Факторы, препятствующие эффективному использо-ванию общественного участия в досудебном производстве / Н.А. Хушвактова // Теоретические аспекты юриспруденции и вопросы правоприменения: сб. ст. по материалам LXV Международной научно-практической конференции «Теоретические аспекты юриспруденции и вопросы правоприменения». – № 11(65). – Москва, Изд. «Интернаука», 2022. DOI:10.32743/25419889.2022.11.65.346588
26. Хушвактова Н.А. Коррупцияга оид жиноятларни фош қилиш ва тергов қилишда жамоатчилик ёрдамидан фойдаланиш // «Давлат бошқаруви соҳасида коррупциявий хавф-хатарларни бартараф этиш механизмларини такомиллаштириш масалалари»: республика илмий-амалий конференцияси тўплами – Тошкент давлат юридик университетининг ихтисослаштирилган филиали, Т: 2022. Б.78-83.